

**VATAN VA MILLAT: VATANPARVARLIK VA MILLIY G'URUR
MAVZULARIDAGI KECHINMALAR. SAIDA ZUNNUNOVA SHE'RIYATI
MISOLIDA**

Aliqulova Ra'no Akmal qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada Saida Zunnunova, uning ijod yo'li haqidagi fikrlar o'z aksini topadi, shoira she'riyatining nozik qirralari, ijodidagi Vatan mavzusi yoritilishidagi novatrliklar, nozik qalbning o'xshashi yo'q satrlarda chizilgan manzaralarini tahlil qilamiz. Saida Zunnunova adabiyot muxlislarining ko'nglida ajib sezgilar, nafis hislarni uyg'ota olgan, she'riyat atalmish chamanzorda o'ziga xos bo'yini, tarovatini tarata olgan nozikqalb shoirlarimizdan edi. Ijodkorning Vatan haqidagi, vatanparvarlik tuyg'ulari haqidagi she'rlari esa ishimizning obyekti qilib olindi.

Kalit so'zlar

Saida Zunnunova, she'r, lirika, vatanparvarlik, Vatan, tandir, kulcha.

Abstract

The article reflects the views on Saida Zunnunova and her creative path, analyzing the subtle aspects of the poet's lyrical art, the innovations in depicting the theme of the Motherland, and the unique imagery drawn in the lines of her delicate soul. Saida Zunnunova was one of those sensitive-hearted poets who could evoke deep emotions and refined feelings in the hearts of literature lovers and spread her unique fragrance and freshness in the garden of poetry. The poems about the Motherland and patriotic feelings of the poet serve as the main object of this study.

Keywords

Saida Zunnunova, poem, lyrics, patriotism, Motherland, tandoor, flatbread.

Аннотация

В статье отражены взгляды на творчество Саиды Зуннуновой и её творческий путь. Анализируются тонкие аспекты поэтического искусства, новаторство в изображении темы Родины, а также уникальные образы, созданные в строках её утончённой души. Саида Зуннунова была одной из тех поэтесс с тонкой душевной организацией, которые могли пробуждать в сердцах любителей литературы глубокие эмоции и изысканные чувства, распространяя свой неповторимый аромат и свежесть в саду поэзии. Стихи поэтессы о Родине и патриотических чувствах стали объектом данного исследования.

Ключевые слова

www.bestpublication.net

Саида Зуннунова, стихотворение, лирика, патриотизм, Родина, тандыр, лепёшка.

KIRISH

Saida Zunnunova hayoti va ijodini o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shoir hayotining ibratli jihatlari, she'riyati, nasri, shuningdek, hajviy hamda dramati asarlari ham tahsinga sazovordir. Ayniqsa, shoir ijodidagi Vatan haqidagi, vatanparvarlik ruhidagi she'rlar alohida ajralib turadi. Saida Zunnunova ijodi o'z davrida o'zbek qizlarining ham she'riyat maydonida dadil asarlar bitishi mumkinligini isbotladi. Uning 1976-yilda chop etilgan "Tanlangan asarlar"i debochasida shoir o'z ijodi haqida, bu nurafshon yo'lga qay tarzda qadam qo'yganligi haqida yozadi: "1937-yilda birinchi she'rim chiqqan bo'lsa, 1957-yildan boshlab sal durustroq she'rlar yoza boshladim desam, rosa yigirma yil yuribman. Shu yigirma yil ichida juda ko'p sherlar yozdim". Saidaxonim tabiatan juda kamtar va hokisor bo'lgan. Buni biz yuqorida o'z ijodiga bergan bahosidan ham anglashimiz mumkin. Uning bu davrda "Qizingiz yozdi", "Yangi she'rlar" to'plamlari ham e'lon qilingan bo'lsa-da, bu to'plamga 1-va 2- kitoblaridan ba'zi she'rlargina kiritilgan, xolos. She'riyat adabiyotning eng ta'sirchan janri hisoblanadi. Unda biror hayotiy hodisa, voqea ta'sirida insonda tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali mavzu ochib beriladi. Shuning uchun ham lirikada ifodalangan ichki dunyo o'quvchi muxlisni ham shoirning hissiy oqimiga olib kiradi.

MUHOKAMALAR VA NATIJALAR

Shoir ijodi va faoliyati haqida biz uning uch tomlik Tanlangan asarlaridan, shuningdek, I. G'ofurovning "Baxti kulgan shoiralar", "O'ttiz yil izhori" kabi asarlaridan, Said Ahmadning "Yo'qotganlarim va topganlarim" yodnomalaridan o'qib, o'rganishimiz mumkin. She'riyat adabiyotning eng ta'sirchan janri hisoblanadi. Unda biror hayotiy hodisa, voqea ta'sirida insonda tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali mavzu ochib beriladi. Shuning uchun ham lirikada ifodalangan ichki dunyo o'quvchi muxlisni ham shoirning hissiy oqimiga olib kiradi. Belinskiy lirika haqida to'xtalar ekan, quyidagi fikrlarni ham keltirib o'tadi: "Lirik asarda har qanday poeziya asarida bo'lgani singari, fikr so'z bilan bayon qilinadi, lekin u fikr sezgi orqasiga yashiringan bo'ladi va bizda mushohada uyg'otadi, buni esa ongning ochiq va aniq tiliga ko'chirish qiyin... sof lirik asar go'yo kartinaga o'xshaydi, lekin unda muhim narsa kartinaning o'zi emas, u bizda uyg'otgan sezgidir". [4. 142]

Shoiraning "Andijon tonggida" nomli she'ri shunday satrlar bilan boshlanadi:

Erta tong, yulduzlar botmagan hali,

Endigina yorishib kelardi osmon.

Tilla rang oymomo kezardi asta,

Go'zal edi go'yo bir kulchasimon. [1. 142]

Satrlarni o'qigan o'quvchi beixtiyor Andijonning o'zigagina xos bo'lgan nafis tong otish manzaralarini ko'z oldiga keltiradi. Bu shunday tongki, hali yulduzlari ham botib ulgurmagan, Abdulla Qahhorning ta'biri bilan aytganda “uvadaga o'xshagan”, bulutlari yorishib ketmagan, murodbaxsh sahar. Aytishlaricha, tongda Alloh Taolo yerga rizqni sochuvchi sharishtalarni yer yuziga tushirar ekan, she'rdagi lirik qaghramon ham ayni “Rahmat yomg'iridan” bebehra qolmaslik uchun Quyoshni qarshilash maqsadida yulduzlar hali so'nmasdanoq g'aflat uyqusidan uyg'onadi. Bu paytda tilla rangli oymomo hali – hanuz ko'k dengizida sekin, ohistalik bilan suzib yurardi. Saida Zunnunova shu sayyor oyni kulchaga qiyoslaydi. Kulcha- tandirda yopilgan kichkina, dumaloq non. Xalqimizda non- rizq, nasiba va mehr timsolidir. Demakki, shoira Vatanning bir bo'lagi bo'lgan musaffo osmonni, uning bag'ridagi oy va yulduzlarni nihoyatda samimiy iliqlik bilan so'zlar yordamida ajoyib manzarani jonlantiradi. Shuningdek, xalqimiz orasida nihoyatda qadrlil bo'lgan kulchani ham kiritib, Vatanning ham naqadar azizligiga yashirin ishora qiladi. Muhammad Yusuf ham o'zining “Iqror” she'rida shunday misralarni keltiradi:

Ko'rdim suluvlarning eng faranglarin,

Yo xudbinman men, yo soda kasman men,

Parijning eng go'zal restoranlarin,

Bitta tandiringga alishmasman men.

Demakki, Muhammad Yusuf ham bittagina tandirni Parijning eng go'zal restoranlariga ham alishmasligini faxr-u g'urur bilan tilga oladi.

Saida Zunnunova qalamiga mansub “ Vatan ” she'ri ham yuqorida tilga olingan Vatanning muqaddasligi haqidagi fikrlarni mantiqan davom ettiradi:

Yuz yil umr ko'rsam, yuz yil she'r yozsam,

Yuz yil ta'rifingni aytsam muttasil.

Baribir sevgili yorin rasmini,

Chizmoqqa munosib rang topolmayin,

Chamanda tentirab yurgan rassomday,

Sening tasviringga so'z axtarman,

So'zlar sarasidan shu bugungiday,

Yuz yilgi she'rimni yig'salar hamki,

Bo'lmaydi dildagi sevgimday asil,

Ey, mening Vatanim, mening Vatanim! [1. 42]

Demakki, shoira yuz yil hayot kechirib, shu muddat davomida tinimsiz Vatanning ta'rifini qilishi mumkin, biroq shunda ham xuddi yorini suratini chizish uchun rang topolmay sarson bo'lgan rassomday ilojsiz holda qolajagini aytar ekan, Vatan haqida qancha so'z aytmasin, qancha ta'rif-u tavsif qilmasin baribir Qalam o'zligicha qolishini juda chiroyli tabiiy tamsil bilan ifodalaydi. Ta'rifini keltirishga so'z ham topilmaydigan

Vatan aslida qanday ko‘rinishda ekanligini Saidaxonim “Qishloq” nomli she‘rida yaqqolroq tasvirlaydi:

Shuncha xushmanzara, go‘yo tabiat,
Bugun chiroyini shu yerga to‘kkan.
Har bir tup g‘ozaning yaproqlarida,
Yuzlab yulduzlarning yuzlari cho‘kkan. [1. 42]

Satrlar nihoyatda ohorli. Tabiatning juda xushmanzara ekanligini e‘tirof etgan shoira Vatan bor chiroyini shu yerga to‘kkanga o‘, xuddiki har bir tup g‘ozaning yaproqlarida yuzlab yulduzlarning akslanishi ham Muqaddas zaminning chiroyiga yanada chiroy qo‘shayotganligini ta‘kidlaydi. She‘r mazmunan boy, shaklan ham betakroridir. 3-misra oxirida keltirilgan “yaproqlarida” so‘zi keying qatordagi “yuzlab yulduzlarning yuzlari “ so‘zlari bilan yonma-yon holda kelib, ohangdoshlik hosil qilgaxshashinin va alliteratsiya badiiy san‘atini yuzaga chiqargan. Shoironing shunday she‘rlari ham borki, ularda Vatan degan tushuncha yangicha ma‘no kasb etadi. Masalan, “Qizimga” nomli she‘rida:

Jahon mening bag‘rimdami, yo men jahon bag‘rida,
Yuz bahorning yellarimi sochlarimni silagan?
Ming gulshanning gullaridan rohatbaxsh bu qo‘lchalalar,
Baxtga ko‘mib yuragimni, yuzlarim erkalagan. [1. 132]

Saidaxonim ,avvalo, ayol va ona edi. Shuning uchun o‘zbek onalariga xos bo‘lgan muruvvat bilan jajji qizalog‘ining o‘zini bir jahonga (Jahonni Vatan ma‘nosida ham tushunish mumkin. Ta‘kid bizniki. A.R) qiyoslagan. U ming gulshanning gullaridan ham rohatbaxsh bo‘lgan bu qo‘lchalari bilan mushfiq onaning yuragini baxtga ko‘mib, yuzlarini erkalagan. Bu she‘rni yana boshqacha ma‘noda ham tushunish mumkin. Birinchi misrada “Jahon mening bag‘rimdami, yo men jahon bag‘rida” deyish orqali ayni vaqtda o‘zining ham Onaday muqaddas va taftli Onaning bag‘ridagi go‘dakdek his qiladi. Shuning uchun onasiga erkalangan qizaloqdek “Yuz bahorning yellarimi sochlarimni silagan?” deydi. Demakki birgina she‘r orqali ikki xil ma‘no anglatish san‘ati ham Saidaxonimning novatorligi edi. Bugina emas, yuqoridagi she‘rda mumtoz adabioyot an‘analarini davom ettirgan holda istiora (jahon deya jahonga qiyoslangan qizchasi), tashxis (yellarning soch silashi), tashbeh (yuz gulshanning qo‘llaridan rohatbaxsh qo‘llar. Bu satr orqali yana bir marotaba tashxis san‘ati ham qo‘llangan.) badiiy san‘atlarini mohirlik bilan qo‘llagan.

Saida Zunnunova ijodi o‘z davrida o‘zbek qizlarining ham she‘riyat maydonida dadil asarlar bitishi mumkinligini isbotladi. Uning 1976-yilda chop etilgan “Tanlangan asarlar”i debochasida shoira o‘z ijodi haqida, bu nurafshon yo‘lga qay tarzda qadam qo‘yganligi haqida yozadi:” 1937-yilda birinchi she‘rim chiqqan bo‘lsa, 1957- yildan boshlab sal durustroq she‘rlar yoza boshladim desam, rosa yigirma yil yuribman. Shu yigirma yil ichida juda ko‘p sherlar yozdim”. Saidaxonim tabiatan juda kamtar va

hokisor bo'lgan. Buni biz yuqorida o'z ijodiga bergan bahosidan ham anglashimiz mumkin. Uning bu davrda “Qizingiz yozdi”, “Yangi she'rlar” to'plamlari ham e'lon qilingan bo'lsa-da, bu to'plamga 1-va 2- kitoblaridan ba'zi she'rlargina kiritilgan, xolos.

She'riyat adabiyotning eng ta'sirchan janri hisoblanadi. Unda biror hayotiy hodisa, voqea ta'sirida insonda tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali mavzu ochib beriladi. Shuning uchun ham lirikada ifodalangan ichki dunyo o'quvchi muxlisni ham shoirning hisiy oqimiga olib kiradi.

XULOSA

Saida Zunnunova adabiyot muxlislarining ko'nglida ana shunday ajib sezgilar, nafis hislarni uyg'ota olgan, she'riyat atalmish chamanzorda o'ziga xos bo'yini, tarovatini tarata olgan nozikqalb shoirlarimizdan edi. Ijodkorning o'zi “Tanlangan asarlar”ining debocha qismida she'riyatga shunday ta'rif beradi:” She'r – juda kata ehtiros, iztirob, hayajon, kayfiyatning mahsuli. Shoirning hissiyot darajasi qanchalik teran bo'lsa, kitobxonning yuragiga shunchalik chuqur o'rnashadi. Bu, qobilyatdan tashqari juda katta mehnatdir”. [1. 3] Darhaqiqat shoiraning o'zi biror lahza bo'lsa-da ijodiy mehnatdan charchamadi. Ayniqsa, uning Vatan haqidagi, tug'ilib o'sgan go'shasi- Andijon haqidagi she'rlari ayniqsa tahsinga sazovordir. Bunday she'rlarida Vatan tushunchasi, vatanparvarlik masalalari uyg'unlashib ketadi.

REFERENCES:

1. Zunnunova S. “Tanlangan asarlar”.– Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1976.
2. G'ofurov I. “Baxti kulgan shoirlar”. – Toshkent: Adabiyot, 1984.
3. Said Ahmad. “Yo'qotganlarim va topganlarim.” – Toshkent: Yozuvchi, 1981.
4. Belinskiy V. G. “Estetika masalalari”. – Moskva: Iskustvo, 1953.
5. V.G. Belinskiy. Tanlangan asarlar, Toshkent, O'zdamnashr, 1995.